

O'zbekiston va Afg'oniston hukumati vakillarining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi



O'zbekiston Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi hukumat delegatsiyalari o'rtasida videokonferensiya shaklida muzokaralar o'tkazildi. Muloqot davomida har ikki tomon hamkorlikni kengaytirish va mintaqada barqaror iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlanishni ta'minlashdan manfaatdorligini tasdiqladi.

Kun tartibiga muvofiq, muloqot davomida savdo, energetika, transport kommunikatsiyalari va logistika sohaslarida hamkorlikning dolzarb yo'nalishlari, shuningdek, mintaqaviy ahamiyatga molik qator muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama etildi.

Delegatsiyalarga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari - investitsiya va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov, Afg'oniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Muhammad Xanif Atmar va Afg'oniston prezidenti ma'muriyati rahbari Muhammad Shokir boshchilik qildilar. Muzokaralarda ikki mamlakat tashqi ishlar, transport, energetika vazirliklari, shuningdek, boshqa tegishli idora va kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

Muzokaralar chog'ida ikki mamlakat rahbarlari sa'y-harakati tufayli o'tgan 3 yil davomida o'zaro munosabatlarda yuqori darajaga erishilgani ta'kidlandi, shuningdek, tomonlar keng ko'lamli hamkorlik doirasida erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirishga sodiqligi bildirildi.

Energetika sohasidagi hamkorlikni yana-da faollashtirish zarurligi e'tirof etildi. O'zbekistondan Afg'onistonga elektr energiyasi yetkazib berishni tashkil etish va shu maqsadda tegishli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni davom ettirish, jumladan, "Surxon - Puli - Xumri" uzatish liniyasi qurilishi loyihasini tezkor ravishda amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Shuningdek, tomonlar "Markaziy Osiyo - Janubiy Osiyo" yo'nalishida ham, "Afg'oniston - Xitoy, MDH mamlakatlari va Yevropa" yo'nalishida ham transport yo'laklarini kengaytirish va ikki mamlakat tranzit salohiyatidan unumli foydalanish orqali mintaqadagi transport kommunikatsiyalari infratuzilmasini takomillashtirish hamda O'zbekiston va Afg'onistonning o'zaro bog'liqligini ta'minlash muhimligini ta'kidladilar.

Uchrashuvda savdo aloqalarini yana-da mustahkamlash yo'llari yuzasidan fikr almashildi. Xususan, o'zaro savdo hajmining o'sish sur'atiga ijobiy baho berildi - 2020-yilning birinchi yarmida pandemiya oqibatlarining xalqaro savdo muhitiga salbiy ta'siriga qaramay, ikki tomonlama savdo hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 foiz oshgan.

Savdo aloqalarini yana-da kuchaytirish maqsadida tegishli institutsional va huquqiy asoslar ishlab chiqish, o'zaro savdoni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish, jumladan, chegara oldi savdo salohiyatidan to'liq foydalanish va imtiyozli savdo Bitimini tuzish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Muzokaralar yakunida yaqin kelajakda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan qo'shma chora-tadbirlar kelishib olindi. Savdo, energetika va transport sohasini rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yana-da kuchaytirish va aniq loyihalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Tomonlar fikricha, ikki tomonlama munosabatlarda erishilgan yutuqlar va hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, taraqqiyot va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish hamda Afg'onistonni ushbu jarayonga faol jalb etishga xizmat qiladi.